

YAN KVI JA HIKOYALARIDA KUNDALILIK FENOMENI

Hidoyatova Aziza
TDSHU tayanch doktoranti

Annotatsiya: XX asrning ikkinchi yarmida hikoya janri tabiatining o'ziga xosligini kundalilik fenomenida ko'rsata olgan adiba Yan Kvi Ja bir-birini takrorlamaydigan o'z olami, o'z qismatiga ega odamlarning ruhiyatini yangi obrazlarda ochib berishga muvaffaq bo'ldi. Muallifning o'ziga xos betakror mahorati hikoya janrini kundalilik fenomenida, oddiy insonlarning maishiy hayot tarzida tasvirlashida bo'rtib namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: badiiy obraz yaratish funksiyasi; "himoyalash" funksiyasi; umidsiz va xaroba hayotda o'zini anglash, o'zgarish funksiyasi, umidsiz va xaroba hayotda o'zini anglash, o'zgarish funksiyasi; ruhiy (psixologik) funksiya.

XX asrning ikkinchi yarmida estetik hodisa sifatida taraqqiyot yo'liga kirgan hikoya janri adiba Yan Kvi Ja ijodida yanada sayqallandi. M. Baxtinning "Janrning adabiyotning har taraqqiyot bosqichida va ushbu janrning har bir asarida qayta tug'iladi va yangilanadi"¹, degan fikrlari koreys hikoyalarining tadrijiga bevosita bog'liqdir. Muallif hikoyalarida bir tomondan mumtoz davr pxeol hikoyalari syujeti saqlanib qolgan bo'lsa, ikkinchi tomondan kundalilik voqealarining badiiy tasviri bilan ajralib turdi.

Yan Kvi Ja kundalilik fenomeni asosida qator hikoyalarda o'ziga xos obrazlar galareyasini yaratdi. Bu obrazlar badiiy jihatdan yuksak mahorat bilan aks ettirilgan hamda inson tabiatidagi ezgulikka zid xususiyatlarning yuzaga kelishining tub zahirida mavjud tuzum, u joriy qilgan muhit yotadi, degan fikrni ilgari surdi. Ijtimoiy hayotdagi kamchiliklarni fosh qilishda kundalik hayotdagi mayda, ammo shu bilan birga muhim masalalarga alohida e'tibor qaratdi. Hikoyalar uchun olingan

¹ Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Советский писатель, 1963. – С. 142.



voqealarning hayotiyligi, obrazlarning tabiiyligi esa adibani zamondosh ijodkorlardan ajratib turadi.

O‘z zamondoshlaridan farqli ravishda adiba o‘z hikoyalariga qahramon axtarmaydi, barcha qahramonlarni atrofidan, yangi daha Vonmingdondan topadi, ularning xarakterini ochishda ortiqcha portretlar chizmaydi, balki ularning kundalik faoliyatini kuzatish orqali inson ma’naviyatiga ta’sir etadigan uslubni qo‘llaydi, har bir obrazga mos uslub, badiiy vositalardan foydalangan sari adibaning hikoyachilik mahorati ochilib boradi. Pxesol hikoyalari uchun mashhur tarixiy shaxslar obraz sifatida tanlangan bo‘lsa, adiba hikoyalarida qahramonlar real hayotdan olingan oddiy insonlardir. Muallif yaratgan qahramonlarda uning kuzatuvchanligi, insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tabiiy tasvirlash qobiliyati namoyon bo‘ladi.

Filologik nuqtai nazardan olib qaraganda, kundalilik bu: “Kundalilik – bu o‘zida ko‘p sonli rasmiy va mazmuniy xarakterni aks ettiruvchi murakkab dinamik hodisa, syujet rivoji ramkasi doirasida yuz beradigan o‘tgan zamon, bugungi kun va kelajakda, shuningdek, inson hayotining turmush tarzi, mafkurasi, siyosati va madaniyati kabi sohasida ham ro‘y beradigan voqea-hodisalardir”².

Darhaqiqat, kundalilik milliylik olam manzarasida muhim unsur hisoblanadi. Koreys ma’naviy-estetik nuqtai nazarida, ijodkorning mohirligi, go‘zallikni oddiy narsalarda – kichik va kundalilikda ko‘rsata olishi bilan izohlanadi. Yan Kvi Ja yaratgan hikoyalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, adiba o‘z ijodida ham kichik, ham kundalik narsalarni uyg‘unlashtira olgan. Muallif o‘z badiiy olamida kundalilik fenomenini faollashtira olgan, shu jihati bilan ham boshqa adibalardan ajralib turadi. Hayot haqiqatini maishiy masalalar bilan uyg‘unlikda badiiy tasvirlay olgan adiba adabiyotning vazifasini o‘ziga xos yo‘sinda ko‘rsatishga harakat qildi.

Muallif hikoyalarini N.M. Suxixning³ fikriga ko‘ra, “qahramon – ziddiyat”, “asar – kitobxon” tarzida guruhlashtirish mumkin. “Qahramon – ziddiyat” tizimini Yan Kvi Ja hikoyalariga tadbiq etadigan bo‘lsak, kundalilik fenomeni matnda badiiy yaxlitlikda namoyon bo‘ladi. Adiba asarlarida bu fenomen hayot haqiqatini

² Кувшинов Ф.В. К проблеме “повседневность” в литературоведении // ФИЛОЛОГОС. – Елец: Елецкий гос. ун-т им. И.А. Бунина, 2014. – № 22(3). – С. 38-43.

³ Сухих Н.М. “Функция образов повседневности в творчестве Харуки Мураками ва Хаяо Миядзаки”. Современные проблемы филологии. Вопросы теории и практики. Материалы международной научно-практической конференции. – Москва: Издательство «Перо», 2020. – С. 185-191.



badiiylashtirishda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Hikoya qahramonlari xatti-harakatining samimiyligi, milliy, individual xususiyatlari asarning muvaffaqiyatini ta‘minlagan. Gyote ta‘biri bilan aytganda, “yangi zamonning eng original yozuvchilari bizga yangi narsa bergani uchun emas, narsa-hodisalar haqida go‘yo oldin hech kim so‘zlamaganday qilib gapirganlari uchun originaldir”⁴.

Adiba hikoyalarida inson ma‘naviyati bilan aloqador ijtimoiy va axloqiy masalalar butunlikda ifodalanadi. Darhaqiqat, Yan Kvi Janing mamlakatda ro‘y bergan yangi tuzum, yangicha dunyoqarash, yangicha siyosat, ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy munosabatlar qaror topayotgan, butkul yangicha tafakkurni taqozo etayotgan davr hamda shu davrdagi inson kechmishlari tajassumi ostida dunyoqarashi kengaydi, atrofdagilarga boshqacha nazar bilan qaray boshladi, hayoti davomida ko‘rgan-kechirganlarini qog‘ozga tushirdi. Erkin Vohidov aytganlaridek: “Bir yozuvchining adabiyot dargohiga kirib undan o‘z o‘rnini olishi uchun shartu sharoitning tajassumi kerak bo‘ladi. O‘sha ming birning biri adabiy muhit va bu muhitdagi odamlarning xayrixohligidir”⁵.

Fuqarolar urushi bilan bog‘liq tanglik, bo‘shliq, tez-tez sodir bo‘lgan namoyishlar, qishloq turmush tarzining yanada tang ahvolidan so‘ng 1960-1970-yillarda yaratilgan koreys nasrida tushkunlik kayfiyati hukmronlik qiladi. Hayot davom etmoqda, inson yashaydi, ijod bilan shug‘ullanadi, yangilik yaratadi, jamiyatni rivojlantirishda davom etadi va h.k. Koreyada ham sanoatlashtirish bilan bog‘liq ravishda yangi dahalar qurilishi boshlandi. Aynan yangi dahaga ko‘chib o‘tgan adiba o‘z hikoyalarida qariya, sartarosh ayol, do‘kondor Kim, tentak shoir, qizaloq, xudbin erkak, opa-singillar obrazini kiritish orqali mazkur jamiyatga o‘z tanqidiy munosabatini bildirdi.

Jamiyatda ro‘y berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlarning inson ma‘naviy qiyofasiga ta‘sirini ko‘rsata oldi. Oddiy insonlarning hayotda o‘z iqtidorini namoyon qilish imkoniyatining cheklanganligiga e‘tibor qaratdi:

“Bir qarashda kuchli shaxslar, ertak qahramonlariga o‘xshaydi, aslida har bir inson – u katta shahar rahbari bo‘lsin yoki sartarosh – hayotda qiyinchiliklarga,

⁴ Xurshid Davron kutubxonasi. <https://kh-davron.uz>.

⁵ Адабиётимиз фахри. Нашрга тайёрловчилар: У. Норматов, Б. Каримов. – Тошкент. “O‘zbekiston”. 2007. – Б. 75.



sinovlarga duch keladi. Faqat qiyinchiliklarni yengib o'tishga bo'lgan ishtiyoq, kurash insonni qahramonga aylantira oladi"⁶.

Suxix N.M. ⁷ ko'rsatib o'tgan "qahramon – ziddiyat" tizimida kundalilikning quyidagi funksiyalari namoyon bo'ladi: **badiiy obraz yaratish funksiyasi** – bosh qahramonning faoliyati va faqat unga xos detallar asardagi badiiy obrazning ajralmas qismi sanaladi; **"himoyalash" funksiyasi** – bu funksiyada kundalilikning ogoh bo'lish, ehtiyot bo'lish kabi xususiyatlari namoyon bo'ladi; **umidsiz va xaroba hayotda o'zini anglash, o'zgarish funksiyasi** – muallif sanoatlashtirish davrida qishloq aholisining qiyin turmush tarzini Lim-si kabi oddiy dehqon obrazida ochib beradi. Lim-si adiba tomonidan o'ta hayotiy tasvirlangan o'ziga xos, betakror personaj; hikoyani o'qish jarayonida biz uni har kuni yonimizda yurgan inson sifatida idrok etamiz⁸; **ruhiy (psixologik) funksiya** – uy ishlarini bajarish, jumladan, uylarni tozalash, ovqat tayyorlash yoki farzandining o'qishi bilan shug'ullanish – bularning hammasi odatiy ishlar hisoblanadi, shu bilan birga bu ishlar psixologik xarakterga ham ega. Nimadandir chalg'ish uchun ish yoki o'qishga mukkasidan berilib ketishni ruhiy funksiyaga kiritish mumkin⁹.

Suxix N.M. ko'rsatib o'tgan ikkinchi "asar – kitobxon" funksiyasini adiba hikoyalariga quyidagicha tadbiq etish mumkin: **majburiylik (undovchi) funksiya** – mazkur funksiya kitobxonni foydali ish bilan shug'ullanishga majbur qiladi; **bilish funksiyasi** – bu funksiyaga muvofiq kitobxon XX asrning ikkinchi yarmida koreys jamiyatida yuz bergan ijtimoiy o'zgarishlar, yangi islohotlar davrida koreys xalqi urf-odatlariga, turmush-tarziga, hayotiy qadriyatlariga ta'sir ko'rsatgan ichki va tashqi omillar bilan yaqindan tanishadi, an'ana va novatorlik o'rtasida yuzaga kelgan to'qnashuv sabablarini anglab yetadi; **tarbiyaviy funksiya** – adibaning "G'amginlik kuch beradi" hikoyasida o'zini to'lqinlantirgan, ko'ngliga tinchlik bermay kelayotgan

⁶ Поль Вайнцвайг. Десять заповедей творческой личности. – М.: Прогресс, 1990. – С.181-182.

⁷ Сухих Н.М. "Функция образов повседневности в творчестве Харуки Мураками ва Хаяо Миядзаки". Современные проблемы филологии. Вопросы теории и практики. Материалы международной научно-практической конференции. – Москва: Издательство «Перо», 2020. – С. 188.

⁸ Виноградов И.И. Проблемы содержания и формы литературного произведения. – М.: Изд-во МГУ, 1988. – С. 21.

⁹ Сухих Н.М. "Функция образов повседневности в творчестве Харуки Мураками ва Хаяо Миядзаки". Современные проблемы филологии. Вопросы теории и практики. Материалы международной научно-практической конференции. – Москва: Издательство «Перо», 2020. – С. 188.



va yozmasa bo'lmaydigan mavzuga jonkuyarlik bilan munosabat bildirgan va o'zining "qalbni tirnovchi, yurakni ezuvchi tuyg'ularini" kitobxonga yuqtira oldi.

Yan Kvi Ja hikoyalarida kunning dolzarb masalalari o'z aksini topgan, ammo ular balandparvoz so'zlar, mubolag'alarda emas, balki kundalik tashvishlar bilan band inson yashayotgan muhit fonida tasvirlanadi. Bir qarashda oddiy ko'ringan har bir masala davrning o'tkir muammosi bo'lib, kitobxonni tashvishlantirmay qo'ymaydi. Adiba hikoyalarida kundalik hayot yuksak badiiy shaklda berilgan, uning qahramonlari esa bizning atrofimizda, biz tanigan, bilgan, ammo e'tibordan chetda qolgan chehralardir. Har bir qahramon faqat hikoya g'oyasini amalga oshiruvchi obraz emas, balki o'z taqdiri, xarakteriga ega shaxslardir.

Yan Kvi Ja hikoyalarida ilgari surilgan har bir masala insonni o'z-o'zini anglashga majbur qiladi. Ana shunda Seul chekkasidagi kichik inson hissiyotlarini kuchaytirish, ma'naviy hayotini boyitish, koreys xalqining axloqiy qadriyatlarini yoritib berish uchun kichik shaklga e'tibor qaratadi. Avloddan avlodga o'tib kelayotgan axloqiy qadriyatlar – bu xalqning hayotiy va ma'naviy boyligidir.

Yan Kvi Ja o'z hikoyalarida keng qamrovli axloqiy-estetik va ijtimoiy muammolarni ko'tarishda shaxsiy va individual sohalarga sho'ng'ish bilan kifoyalanmaydi. Adiba o'z asarlarida ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiqish bilan birga uning mohiyatini anglab yetadi. Shuning uchun ham uning hayotiy qarashlari kitobxonda o'ziga nisbatan hurmat uyg'otadi. Shu sababli hikoya janri adibaning ijodiy dunyoqarashi ko'zgusiga aylandi. Yan Kvi Ja hikoyalarini barcha yoshdagi kitobxon o'qishi mumkin. Hikoyalarida bo'rttirish, mubolag'a, salbiy va ijobiy bo'yoqdorlikka yo'l qo'yilmagan. Hikoyalarining tili ravon, kundalilik badiiylik yo'li bilan tasvirlangan. Har bir hikoyaning yuksak saviyasi, yozuvchining didiga kitobxonning o'zi baho beradi.


Adiba har bir hikoyasida kichik obrazlarga o'ziga xos sifatlarni yuklaydi. Bu Yan Kvi Jaga xos yuksak ijodkorlik, kuzatuvchanlik natijasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Адабиётимиз фахри. Нашрга тайёрловчилар: У. Норматов, Б. Каримов. – Тошкент. "O'zbekiston". 2007.
2. Бахтин М. Проблемы поэтики Достоевского. – М.: Совестьский писатель, 1963.



3. Виноградов И.И. Проблемы содержания и формы литературного произведения. – М.: Изд-во МГУ, 1988.
4. Кувшинов Ф.В. К проблеме “повседнность” в литературоведении // ФИЛОЛОГОС. – Елец: Елецкий гос. ун-т им. И.А. Бунина, 2014. – № 22(3).
5. Поль Вайнцвайг. Десять заповедей творческой личности. – М.: Прогресс, 1990.
6. Сухих Н.М. “Функция образов повседневности в творчестве Харуки Мураками ва Хаяо Миядзаки”. Современные проблемы филологии. Вопросы теории и практики. Материалы международной научно-практической конференции. – Москва: Издательство «Перо», 2020.
7. Xurshid Davron kutubxonasi. <https://kh-davron.uz>.



GLOBAL SCHOLARS
SCIENTIFIC PUBLISHING